

Xorazm Shevalari Leksikasida Metaforalarning Qo‘llanilishi

*Matyusupova Surayyo Farxod qizi*¹

Annotatsiya: Ushbu maqola Xorazm shevalari leksikasidagi metaforalar va ularning tildagi o‘rni masalasiga bag‘ishlangan. Xususan, metaforalarning turlari, uning Xorazm shevalari leksikasida qo‘llanilish xususiyatlari va tilshunoslikdagi ahamiyati haqida batafsil ma‘lumot berilgan. Shuningdek, maqolada metaforaning o‘xshatishlardan farqli jihatlari ham ko‘rsatilib, ularning semantik xususiyatlari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Xorazm shevalari, metafora, ma‘no ko‘chishi, o‘xshatish, badiiy nutq, tilshunoslik, ko‘chim usuli, shakliy o‘xshashlik, semantik tahlil, obrazli ifodalar, so‘z san‘ati, badiiy-estetik qobiliyat.

Kirish

Nutqimizda eng ko‘p uchraydigan va keng tarqalgan ma‘no ko‘chish usullaridan biri - metaforadir. Metafora, narsa yoki tushunchalar o‘rtasidagi o‘xshashlikni asos qilib, so‘zning bir predmetdan boshqa predmetga ko‘chirilishidir². Yunoncha "metaphora" so‘zi "ko‘chirish" degan ma‘noni anglatadi. Bu usulda bir predmet nomi boshqa predmet nomiga, ularning o‘xshashliklariga tayanib, o‘tkaziladi. Misol uchun: "hayot yo‘li", "qalbimiz quyoshi", "ariqning labi" kabi.

Metafora turli so‘z birikmalarida ham o‘zining ma‘nosini ko‘rsatadi. Masalan, "tandirning og‘zi" iborasidagi "og‘iz" so‘zi odam yoki hayvon og‘ziga tashqi o‘xshashlik asosida ishlatilgan. Metaforalarning o‘rganilishi qadim zamonlardan buyon tilshunoslarning e‘tiborini jalb qilgan. Antik davrlarda, Aristotel va Sitseron kabi faylasuflar metaforani olamni tushunishning o‘ziga xos vositasi sifatida qabul qilishgan³. Bu davrda, metaforaning turli shartlar asosida tasniflanishi va uning "noan‘anaviy" tabiati haqida dastlabki fikrlar ilgari surilgan⁴. Ayniqsa, D. F. Sitseron, Kvintiliandan farqli o‘laroq, metafora orqali buyumlar haqidagi aniq va ravshan ma‘lumotlarni yetkazish mumkinligini ta‘kidlagan. Kvintilian esa metaforaning funksiyasini uning maqsadlariga qarab belgilagan va "So‘z o‘z o‘rnidan boshqa so‘zga ko‘chiriladi, agar bu so‘z yetishmayotgan yoki afzal bo‘lmagan bo‘lsa,"⁵ deb ta‘riflagan.

Metafora qanchalik yangi va original bo‘lsa, shunchalik ta‘sirli va ifodali bo‘ladi. Usta so‘z san‘ati vakillari o‘z asarlarida so‘zlarni metaforik ma‘noda ishlatib, nutqning go‘zal va obrazli namunalari yaratadilar.

Xorazm shevalari leksikasida metaforaning ishlatilishi til va adabiyotda katta ahamiyatga ega bo‘lib, bu usul orqali so‘zlar yangi va obrazli ma‘nolarda qo‘llaniladi. Xorazm shevalari leksikasida metaforalar nafaqat so‘zlarning badiiy estetik ifodalarini, balki bu hududdagi madaniyat va insoniyat tasavvurlarini ham aks ettiradi. Shu sababli, Xorazm xalqi nutqida qo‘llaniluvchi metaforalar nafaqat tilshunoslik nuqtai nazaridan, balki mintaqaviy tilning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganishda ham muhim ahamiyatga ega. Ushbu maqolada Xorazm shevalari leksikasida metaforaning ishlatilishiga doir turli holatlar, uning semantik tahlili va ma‘no ko‘chishining shakllari haqida so‘z boradi. Xorazm

¹ Abu Rayhon Beruniy nomidagi UrDU 2-kurs magistranti

² Nurmonov A., Sobirov.A., Qosimova.N., Hozirgi o‘zbek adabiy tili. –Toshkent: Ilm ziyo, 2013. – B. 190.

³ Дорофеева А.А. Что скрывается в тайне метафоры? (О подходах к изучению метафоры западными учеными в XX в.) / Вестн. Моск. ун-та. Сер. 19. Лингвистика и межкультурная коммуникация, 2014. – № 4.

⁴ Махмараимова Ш. Ўзбек тили метафораларининг антропоцентрик тадқиқи: Филология фанлари доктори (DSc) диссертацияси автореферати. – Самарқанд, 2020. – Б. 15.

⁵ Quintilianus M. Fabius. Institutiones oratoriae. Libri duodecim. – Lipsiae, 1887. (VIII, 6, 6)



shevalarida metaforalardan foydalanishning turli ko‘rinishlari mavjud. Narsa va hodisalar o‘rtasidagi o‘xshashlik (ya’ni, ko‘chim usuli) turli xil asoslarda yuzaga keladi.

1. Ikki predmet o‘rtasida shakliy o‘xshashliklar tashqi ko‘rinish asosida:

odamni ovzi (o‘z ma’nosida) – tandirni avzi (ko‘chma ma’noda) (Urganch, Xiva, Shovot).

odamni quloqi (o‘z ma’nosida) – qazanni qulaqi (ko‘chma ma’noda) (Urganch, Xiva, Shovot).

2. Ikki predmet qayerda joylashishi bo‘yicha ma’no ko‘chishi:

itni qujruqi (o‘z ma’nosida) – samaljotti qujruqi (ko‘chma ma’noda) (Qo‘shko‘pir, Xiva)

Nutq jarayonida metaforalardan o‘rinli foydalanish nutqimizni ta’sirchan, jozibali qiladi. So‘zlovchining tinglovchilarga badiiy-estetik qobiliyatini namoyon etadi.

Metafora **narsa, belgi, harakat** o‘rtasidagi nisbiy o‘xshashlikka asoslanadi:

narsa	<i>goynäkni yaqasi (o‘z ma’nosi) – salmani jaqāsi (ko‘chma ma’no) (Urg.)</i>
belgi	<i>qatti nan (o‘z m.) – qatti savuq (ko‘chma m.), qatti uxı (ko‘chma m.); (Urganch, Xiva, Qo‘shko‘pir, Shovot)</i> <i>jumshaq non (o‘z ma’nosi) – jumshaq säis (ko‘chma m.); (Urg.)</i> <i>Uji serilgan, taza. (o‘z m.) – juräkı taza (ko‘chma m.) (Urg.)</i>
harakat	<i>Dm juräkni dırnab gäplädi.</i>

Metaforalarga juda yaqin yana bir vosita bu o‘xshatishdir. O‘xshatish ham ko‘chma ma’no ustiga qurilishi bilan metaforalarga o‘xshash bo‘lib, ular yordamida shaxs va predmetlar bir-biriga o‘xshatiladi. Lekin o‘xshatishlarda metaforalardan farqli o‘laroq *-dek, -day, -simon, -vash, -namo, kabi, singari, yanglig‘, misoli, o‘xshash* kabi vositalar qo‘llaniladi. Xorazm shevalarida o‘xshatishlar *-din, -di* kabi qo‘shimchalar bilan hosil qilinadi.

Masalan: *Apam ujımizi ayi. (metafora). Aydin çirri qiz äkän (o‘xshatish). (Urganch, Xiva, Shovot, Bog‘ot, Xonqa, Qo‘shko‘pir)*

Agar adabiyotshunoslikda ham metafora va o‘xshatishni bir-biridan farqlaydigan bo‘lsak, *metafora* istiora san’atini hosil qiladi, *o‘xshatish* esa tashbeh san’atini hosil qiladi.

Metaforada ma’no ko‘chishi turlicha yo‘llarda amalga oshadi:

a) inson a’zolarining nomi boshqa narsalarga ko‘chadi: *ustärni juzi, bankäni ağzi, çajnikni žundiki; ujni manlaji. (Urganch, Xiva, Shovot, Bog‘ot, Xonqa, Qo‘shko‘pir)*

Masalan: bosh, yuz so‘zlari ko‘chma ma’noda qo‘llanilishi mumkin. *Kočäni baššında kutib tur.* Ushbu misolda *baš (bosh)* so‘zi qayerda joylashganligiga ko‘ra ko‘chma ma’noda qo‘llanilyapti. Chunki odamning boshi ham tananing eng yuqori qismida joylashadi, ko‘chani ham eng yuqori qismi uning boshi hisoblanadi;

a) inson kiyimlari qismlarining nomi boshqa narsalarga ko‘chadi. *tagni ätäki, salmani jaqāsi.*

Masalan: *Salmani jaqāsında kir yuvib otirıbdı.* Ushbu gapda *salmani jaqāsi (ariqning yoqasi)* metaforani hosil qilyapti;

b) qush, parranda, hayvon a’zolarining nomi boshqa narsalarga ko‘chadi.

Masalan: *Varrakni qujruqi asmanda dm çirayli görındı.* (Urganch) Ushbu gapda *varrakni qujruqi (dumi)* so‘zi metaforani hosil qilmoqda;

Qaçanaçä şuqa qujruq bolib juräsän?! (Urganch) (qachongacha shu odamga dum bo‘lib yurmoqchisan?!)

Börädän bāžik dörämidi. (Urganch, Xiva, Shovot, Bog‘ot, Xonqa, Qo‘shko‘pir)

(maqol, bo‘ridan qo‘zichoq tug‘ilmaydi)

Bulturğı žüžä bu jilgi žüžäjä žük-žük örgätämiş (maqol)



Itä sarjağ jarašmas (yomon xarakterli odam itga qiyoslangan)

c) harakat-holat (fe'l), belgi-xususiyat (sifat) lar ham o'xshashlik belgisiga ko'ra metafora asosida ma'no ko'chishiga uchraydi.

Darini aʒʒisi, gapni süʒʒisi jaxši (*Dorining achchig'i, gapning shirini yaxshi*)

Iči qaranı jüzı qara (*Ichi qoraning yuzi qora*)

Jaxšini i:zınnan qama, jamanni qi:zini ama (*Yaxshining izidan qolma, yomonning qizini olma*)

Jalğiz dunkı yalvarsanam yanmidı. (*Yolg'iz to'nka yalinsang ham yonmaydi*)

Hali bizani jaqti gunlarimiz galadi (*Hali bizning yorug' kunlarimiz keladi*)

Bi qarangı hajatıma bir jaqtılıq girärmäkän?! (*Bu qorong'u hayotimga bir yorug'lik kirarmikin?!*)

Masalan, *gapni gapa qoş, manı dardıma asmanam jiladi* (inson ko'z yosh to'kadi lekin yomg'ir majoziy ma'noda osmon ko'z yoshi ma'nosini ifodalayapti);

mazzi uxi (shirin uyqu), **savıq xavar** (yoqimsiz xabar);

mazzi alma (o'z ma'nosida) – **mazzi qız** (yoqimtoy qiz, metafora asosida ma'no ko'chishi);

Čirri göjnak (o'z ma'nosida) – **Čirri qoşiq** (metafora asosida ma'no ko'chishi);

Miz arıdi (o'z ma'nosida) - **apamı koñli arıdi** (majoziy manoda onaning ko'ngli yumshab qilgan ayblarini, xatolarini kechirdi, rahm qildi, metafora asosida ma'no ko'chishi).

Sifatlarda ma'no ko'chishi bo'lganda sifatning bir ma'no turi boshqa ma'no turini ifodalaydi. Masalan, *Vayay, ibi balanı mazzılıqına qara*. Ushbu gapda shirin – *mazzi*, maza-ta'mni bildiruvchi sifat, xususiyat bildiruvchi sifat ma'nosini bildirgan. Yoki, *Vni içi dm tar*. Ushbu gapda ham tor – *tar* so'zi hajm bildiruvchi sifat hisoblansa ham, gapda xususiyat bildiruvchi sifat ma'nosini ifodalashga xizmat qilyapti.

d) kishilarga qo'yilgan ayrim ismlar ham metafora asosida qo'yiladi.

Masalan: *Bo'riboy, Qoplombek, Burgutbek, Lochinoy, Gulnora, Gulchehra, Feruza, Yoqutoy, Asalxon, Oyxon, Arslon, Bobur, Gilosxon, Charos, Ozoda, Shahlo, Gulasal, Nilufar va b.*

e) o'simlik yoki uning biror qismining nomi va navi ko'chma ma'no hosil qilishi mumkin:

Buğdaj unıñ bolmasa bolmasın, buğdaj söziñ bolsın

Qovun navlari: *aqnavat* (mazasi o'xshaydi), *tarlavuq*⁶, *kämpirčapan*, *qarrıqız* (tashqi ko'rinishi o'xshaydi);

Gul nomlari: *baxmalgul* (*gultojixo'roz*), *karnaygul*

f) harorat bildiruvchi so'zlar yordamida ko'chma ma'noni hosil qilinadi:

Gözzimä dım issı görinib durbsan. (*ko'zimga juda issiq ko'rinyapsan*)

Näbala rängi savuq mni? (*Bunchalik turqi sovuq buning?!*)

g) qimmatbaho jism nomlari, Xorazm shevalarida asosan, subyektiv fikrni ifodalashda qo'llaniladi:

Özimı altin qizim axı şu (*O'zimning oltin qizimda., axir bu.*)

Xorazm shevalari leksikasida metaforalarning qo'llanilishi so'z san'ati va badiiy nutqning ajralmas qismiga aylanib, tilni boyitish va ifodaviy kuchini oshirishga xizmat qiladi. O'xshashliklar, shaxsiy va obyektiv xususiyatlar, hamda tasavvurlar orqali amalga oshirilgan ma'no ko'chishlar nafaqat lokal til xususiyatlarini, balki bu shevani qo'llovchi odamlarning dunyoqarashini ham ifodalaydi. Shuningdek, maqolada o'xshatishlar va metaforalar orasidagi farqlarni aniqlash, tilshunoslikda bu ikki san'atning ahamiyatini ochib berish hamda Xorazm shevalarida bu jarayonlarning qanday amaliyotga aylanishi

⁶ Avezova H. Xorazm shevalaridagi ayrim qovun nomlari// Iqro jurnali, 2023. – B. 280-282.



tahlil qilingan. Metafora va o‘xshatishlarning nutqdagi o‘rni tilshunoslik ilmiga qiziquvchilar uchun yangi yondashuvlarni keltirib chiqarishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Абдуллаев Ф. Хоразм шевалари. – Тошкент, 1960.
2. Абдуллаев Ф. Ўзбек тилининг ўғуз лаҳжаси. – Тошкент: Фан, 1978.
3. Avezova N. Xorazm shevalaridagi ayrim qovun nomlari// Iqro jurnali, 2023.
4. Norbayeva Sh. va bosh. Xorazm shevalaridagi maqol va iboralarning qisqacha izohli lug‘ati. – Urganch, 2022.
5. Nurmonov.A., Sobirov.A., Qosimova.N. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: Ilm ziyo, 2013.
6. Quintilianus M. Fabius. Institutiones oratoriae. Libri duodecim. – Lipsiae, 1887. (VIII, 6, 6)
7. Дорофеева А.А. Что скрывается в тайне метафоры? (О подходах к изучению метафоры западными учеными в XX в.) / Вестн. Моск. ун-та. Сер. 19. Лингвистика и межкультурная коммуникация, 2014. – № 4.
8. Махмараимова Ш. Ўзбек тили метафораларининг антропоцентрик тадқиқи: Филология фанлари доктори (DSc) диссертацияси автореферати. – Самарқанд, 2020.

